



THE MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL PERFECTION IN EASTERN PHILOSOPHY

Mahmudjon Negmatjanovich Shadimetov

Lecturer at the University of Science and Technology

Independent Researcher at Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

E-mail: shadimetovm@bk.ru

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Eastern philosophy, spiritual perfection, Sufism, Perfect Human, spirituality, self-purification, moral development, Al-Farabi, Ibn Sina, Islamic philosophy.

Received: 04.08.26

Accepted: 05.08.26

Published: 06.08.26

Abstract: This article provides a philosophical and scholarly analysis of the main directions in the formation and development of the concept of spiritual perfection in Eastern philosophy. The study examines Sufism, Islamic philosophy, the philosophical heritage of Eastern thinkers, and their views on spiritual perfection through the concept of the Perfect Human (al-Insān al-Kāmil). The findings demonstrate that the theoretical foundations of spiritual perfection developed within the Eastern philosophical tradition possess significant methodological value for contemporary spiritual and moral development and for the formation of a harmoniously developed personality.

SHARQ FALSAFASIDA RUHIY KAMOLOTNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Mahmudjon Negmatjanovich Shadimetov

Fan va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

e-mail: shadimetovm@bk.ru

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sharq falsafasi, ruhiy kamolot, tasavvuf, komil inson, nafs tarbiyasi, ma'naviyat, ma'rifat, axloqiy kamolot, Forobiy, Ibn Sino.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq falsafasida ruhiy kamolotning shakllanishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tasavvuf, islom falsafasi, Sharq mutafakkirlarining falsafiy merosi hamda komil inson konsepsiyasining ruhiy kamolot

haqidagi qarashlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari Sharq falsafasida ruhiy kamolotning nazariy asoslari bugungi ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot va komil insonni shakllantirish jarayonida muhim metodologik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДУХОВНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ

Махмуджон Негматжанович Шадиметов

Преподаватель Университета науки и технологий

независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени

Абу Райхана Беруни,

E-mail: shadimetovm@bk.ru

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: восточная философия, духовное совершенствование, суфизм, совершенный человек, духовность, нравственное воспитание, самопознание, аль-Фараби, Ибн Сина.

Аннотация: В данной статье с научной философской точки зрения анализируются основные направления формирования и развития духовного совершенствования в восточной философии. В исследовании освещаются суфизм, исламская философия, философское наследие мыслителей Востока, а также их взгляды на духовное совершенствование через концепцию совершенного человека. Результаты исследования показывают, что теоретические основы духовного совершенствования, сформированные в восточной философии, обладают важным методологическим значением для современного духовно-нравственного развития общества и процесса формирования гармонично развитой личности.

Kirish. XXI asrda globallashuv, axborot oqimining jadallashuvi va ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar sharoitida insonning ma'naviy olamini boyitish, ruhiy barqarorligini mustahkamlash hamda barkamol shaxsni tarbiyalash masalalari falsafiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Texnologik taraqqiyot insoniyat hayotiga yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ma'naviy qadriyatlarning saqlanishi, axloqiy mezonlarning mustahkamligi va shaxsning ichki kamoloti bilan bog'liq muammolarni ham dolzarb qilib qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, Sharq falsafasida shakllangan ruhiy kamolot haqidagi ta'limotlarni ilmiy jihatdan o'rganish bugungi davr ehtiyojlariga mos nazariy va metodologik xulosalar chiqarish

imkonini beradi. Sharq falsafiy tafakkurida ruhiy kamolot insonning ichki dunyosini takomillashtirish, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ilm va ma'rifatni egallash hamda ilohiy haqiqatni anglashga yo'naltirilgan uzluksiz ma'naviy jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu g'oya qadimgi Sharq falsafasi, islom falsafasi va tasavvuf ta'limotlarida turlicha yondashuvlar asosida rivojlangan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat insonning komillikka intilishi va o'zini ma'naviy jihatdan takomillashtirish g'oyasidir. Shu bois ruhiy kamolot Sharq falsafasining markaziy kategoriyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar sharxi. Sharq falsafasida ruhiy kamolot masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlar, falsafiy ta'limotlar va tasavvufiy manbalarda turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan. Mazkur mavzuning nazariy asosini, avvalo, Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi tashkil etadi. Abu Nasr Forobiy inson kamolotini ilm, aql va fazilatlar uyg'unligi orqali izohlagan bo'lsa [1], Abu Ali ibn Sino ruhiy yetuklikni ilmiy bilish, axloqiy tarbiya va aqliy takomillashuv bilan bog'laydi [2]. Abu Homid G'azzoliy qalb pokligi, nafsni tarbiyalash va ma'rifatni ruhiy yuksalishning asosiy sharti sifatida baholaydi [3]. Ahmad Yassaviy [4], Bahouddin Naqshband [6], Jaloliddin Rumiy [6] va Aziziddin Nasafiy [7] kabi mutasavviflar esa ruhiy kamolotni tasavvufning amaliy va nazariy tamoyillari orqali izohlab, komil inson g'oyasining mazmunini yanada boyitganlar.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ham ruhiy kamolot masalasi falsafa, dinshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan. Xususan, William C.Chittick tasavvuf metafizikasi va komil inson konsepsiyasining nazariy asoslarini [8], Annemarie Schimmel islom mistitsizmining ma'naviy-axloqiy xususiyatlarini [9], Henry Corbin esa islom falsafasi va irfoniy tafakkurning ontologik asoslarini chuqur tahlil qilgan [10]. Toshihiko Izutsu Qur'on semantikasi va tasavvufiy tafakkur orqali insonning ma'naviy kamolotini falsafiy jihatdan yoritgan [11]. Mazkur tadqiqotlar Sharq falsafasida ruhiy kamolotning mazmuni va mohiyatini ilmiy asosda ochib berishda muhim nazariy manba vazifasini bajaradi.

Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, germenevtik va falsafiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy xolislik, tarixiylik, izchillik, mantiqiylik va obyektivlik tamoyillari tashkil etdi.

Muhokama va natijalar. Sharq falsafasida ruhiy kamolot insonning nafaqat aqliy va axloqiy jihatdan, balki ma'naviy, ruhiy hamda ilohiy haqiqatni anglash yo'lidagi uzluksiz takomillashuv jarayoni sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon insonning o'z nafsini tarbiyalashi, yuksak fazilatlarni egallashi va komillikka intilishi orqali amalga oshadi. Sharq mutafakkirlari ruhiy kamolotni turli falsafiy va diniy maktablar doirasida izohlagan bo'lsalar-da, ularning

barchasini insonning ichki dunyosini poklash va ma'naviy yuksalishga erishish g'oyasi birlashtiradi.

Sharq falsafasida ruhiy kamolotning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Tasavvufiy yo'nalish. Tasavvuf ruhiy kamolotni nafsni poklash (tazkiyat an-nafs), qalbni ma'rifat nuri bilan yoritish va ilohiy haqiqatga yaqinlashish jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu yo'nalishda komillikka erishish tavba, sabr, shukr, tavakkul, muhabbat, zikr va ma'rifat kabi ruhiy maqomlarni bosib o'tish orqali amalga oshadi. Bahouddin Naqshband [5, 57-59-bb.], Ahmad Yassaviy [4, 45-49-bb.], Jaloliddin Rumiy [12, 25-30-bb.], Aziziddin Nasafiy [7, 15-29-bb.] va boshqa mutasavviflar ruhiy kamolotni komil insonni tarbiyalashning eng muhim sharti deb baholaganlar.

2. Falsafiy-ratsional yo'nalish. Forobiy [13, 84-118-bb.], Ibn Sino [14, 116-127-bb.] va Ibn Rushd [15, 45-56-bb.] kabi Sharq faylasuflari ruhiy kamolotni ilm, tafakkur va aqlning takomillashuvi bilan bog'laydilar. Ularning fikricha, inson ilm-ma'rifat orqali o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, axloqiy fazilatlarni egallaydi va baxt-saodatga erishadi. Bu yo'nalishda aql va axloq uyg'unligi komillikning asosiy mezoni hisoblanadi.

3. Axloqiy-ma'rifiy yo'nalish. Yusuf Xos Hojib [16, 45-56-bb.], Kaykovus [17, 12-36-bb.], Alisher Navoiy [18, 18-46-bb.] va Husayn Voiz Koshifiy [20, 25-46-bb.] asarlarida ruhiy kamolot ezgulik, halollik, adolat, saxovat, mehnatsevarlik, kamtarlik va odob-axloqni shakllantirish orqali talqin etiladi. Ushbu yo'nalishda insonning ichki madaniyati va axloqiy yetukligi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qoraladi.

4. Diniy-islomiy yo'nalish. Islom falsafasida ruhiy kamolot Qur'on va Sunnat ta'limotlari asosida insonning Allohga itoat etishi, ibodatlarini mukammal ado etishi, halol turmush tarziga amal qilishi va yuksak axloq sohibi bo'lishi orqali izohlanadi. Imom Moturidiy [21, 15-47-bb.], Imom G'azzoliy [2, 6-96-bb.] va boshqa islom mutafakkirlari qalb pokligi hamda ilm va amal uyg'unligini ruhiy yetuklikning muhim sharti sifatida ko'rsatganlar.

5. Komil inson konsepsiyasi. Sharq falsafasining deyarli barcha yo'nalishlarida ruhiy kamolotning oliy bosqichi komil inson g'oyasi bilan bog'lanadi. Komil inson ilimli, adolatli, halol, sabrli, bag'rikeng, ma'naviy barkamol va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya oladigan shaxs sifatida tavsiflanadi. Bunday inson nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham ezgulikka yetaklovchi ma'naviy yetakchi hisoblanadi.

6. Zamonaviy gumanistik yo'nalish. Hozirgi davr Sharq falsafiy tafakkurida ruhiy kamolot milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, inson huquqlari, ma'naviy xavfsizlik, bag'rikenglik, ekologik mas'uliyat va uzluksiz ta'lim tamoyillari bilan boyitilmoqda. Bu

yondashuv ruhiy kamolotni shaxsning intellektual, axloqiy va fuqarolik fazilatlarini uyg'un rivojlantirish jarayoni sifatida talqin etadi.

Tadqiqot natijalari Sharq falsafasida ruhiy kamolot insonning ma'naviy, axloqiy va intellektual yuksalishini ifodalovchi yaxlit falsafiy tizim sifatida shakllanganligini ko'rsatdi. Ruhiy kamolot haqidagi qarashlar Sharq falsafasining turli maktablari va tasavvufiy ta'limotlarida turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, ularning barchasi insonning ichki dunyosini takomillashtirish, nafsni poklash, ilm va ma'rifatni egallash hamda komillikka erishish g'oyasi atrofida birlashadi. Tahlillar natijasida ruhiy kamolotning Sharq falsafasidagi asosiy yo'nalishlari falsafiy-ratsional, axloqiy-ma'rifiy, diniy-islomiy va tasavvufiy yo'nalishlardan iborat ekanligi aniqlandi. Falsafiy-ratsional yo'nalishda Forobiy va Ibn Sino inson kamolotining asosini ilm, aql va fazilatlar uyg'unligida ko'rgan bo'lsalar, diniy-islomiy yo'nalishda Imom G'azzoliy qalb pokligi, ilm va amal birligi hamda axloqiy tarbiyani ruhiy yuksalishning asosiy omili sifatida talqin etadi [16, 5-23-bb.].

Tasavvufiy yo'nalishning tahlili Ahmad Yassaviy [4], Bahouddin Naqshband [5], Jaloliddin Rumiy [6] va Aziziddin Nasafiy [7] ta'limotlarida ruhiy kamolotning komil inson konsepsiyasi orqali mukammal nazariy tizimga aylanganligini ko'rsatdi. Ularning qarashlarida nafsni poklash, qalbni ma'rifat bilan yoritish, muhabbat, sabr, tavakkul, zikr va ma'naviy tajriba insonni ilohiy haqiqatni anglash sari yetaklovchi asosiy bosqichlar sifatida izohlanadi.

Qiyosiy tahlil natijalari Sharq mutafakkirlarining ruhiy kamolot haqidagi qarashlarida umumiylik va o'ziga xosliklar mavjudligini aniqladi. Umumiy jihat sifatida barcha mutafakkirlar komillikka erishishda ilm, axloq, ma'naviyat va o'zini anglashning hal qiluvchi o'rnini e'tirof etganlar. Farqli jihatlar esa ruhiy kamolotga erishish usullari va metodlarida namoyon bo'ladi. Masalan, Forobiy va Ibn Sino ilmiy bilish hamda aqlni asosiy omil sifatida ilgari surgan bo'lsa, Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband tasavvufiy tarbiya, zikr va nafsni poklashni ustuvor deb hisoblaganlar. Jaloliddin Rumiy ruhiy kamolotning asosini ilohiy muhabbat va ma'naviy tajribada ko'rsa, Aziziddin Nasafiy komil insonni olam va inson mohiyatini anglashning oliy bosqichi sifatida tavsiflaydi.

Tadqiqot davomida ruhiy kamolot konsepsiyasi faqat diniy yoki tasavvufiy tushuncha emas, balki falsafa, axloq, pedagogika va ma'naviyatni o'zida mujassam etgan kompleks ilmiy kategoriya ekanligi asoslandi. Uning mazmunida shaxsning intellektual rivojlanishi, axloqiy barkamolligi, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligi o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Olingan natijalar Sharq falsafasida ruhiy kamolot haqidagi ta'limotlar zamonaviy jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlarni komil inson g'oyalari asosida tarbiyalash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar

uyg'unligini ta'minlashda muhim nazariy va metodologik manba bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu jihatdan, Sharq falsafasining ruhiy kamolotga oid ilmiy merosi bugungi globallashuv sharoitida shaxsning ma'naviy barqarorligini mustahkamlash va barkamol insonni shakllantirishning muhim falsafiy asoslaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Sharq falsafasida ruhiy kamolotning asosiy yo'nalishlari tasavvufiy, falsafiy-ratsional, axloqiy-ma'rifiy, diniy-islomiy va komil inson konsepsiyasi asosida shakllangan bo'lib, ularning barchasi insonning ma'naviy yuksalishi, axloqiy yetukligi va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Mazkur yo'nalishlar bugungi kunda ham inson kamoloti, ma'naviy taraqqiyot va komil insonni shakllantirishning muhim nazariy asoslari sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Sharq mutafakkirlari merosida turli yo'nalishlarda rivojlangan bo'lsa-da, ularning barchasini insonni komillikka yetkazish maqsadi birlashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sharq falsafasida ruhiy kamolotning asosiy yo'nalishlari tasavvufiy-irfoniy, axloqiy-ma'rifiy, ilohiy-kalomiy va falsafiy-ratsional yo'nalishlardan iborat bo'lib, ular bir-birini to'ldiruvchi yaxlit ma'naviy-falsafiy tizimni tashkil etadi. Tasavvufiy-irfoniy yo'nalishda ruhiy kamolot qalbni poklash, nafsni tarbiyalash, zikr, riyozat va ilohiy muhabbat orqali Haqqa yaqinlashish bilan izohlanadi. Axloqiy-ma'rifiy yo'nalishda esa ruhiy kamolot ezgulik, adolat, halollik, saxovat, mehnatsevarlik, odob va mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish orqali namoyon bo'ladi. Falsafiy-ratsional yo'nalishda esa Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Ibn Rushd ruhiy kamolotni aql-idrokning takomillashuvi, ilm-fan va falsafiy tafakkurning rivoji bilan bog'laydilar. Ularning qarashlarida komil inson nafaqat o'zini ma'naviy jihatdan tarbiyalaydigan, balki jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'shadigan shaxs sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, Sharq falsafasida ruhiy kamolot konsepsiyasi insonning ma'naviy, axloqiy, intellektual va diniy kamolotini o'zaro uyg'unlashtiruvchi yaxlit nazariy tizim ekanligi bilan tavsiflanadi. Sharq mutafakkirlari merosini komparativ falsafiy yondashuv asosida o'rganish ruhiy kamolot nazariyasini yanada boyitish, uni zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimiga tatbiq etish hamda barkamol shaxsni shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Farabi. The Political Writings. Selected Aphorisms and Other Texts. - Ithaca: Cornell University Press, 2001. – 168 p.
2. Ibn Sina (Avicenna). Kitāb al-Najāt (The Book of Salvation). Cairo: Dār al-Āfāq al-'Arabiyya, 2013. – 832 p.
3. Al-Ghazali. Ihya' 'Ulūm al-Dīn (The Revival of the Religious Sciences). - Beirut: Dār al-Ma'rifa, 2005. – Vol. 3, 624 p.

4. Ahmad Yassaviy. Devoni Hikmat. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 432 b.
5. Bahouddin Naqshband. Naqshbandiya ta'limoti. - Toshkent: Movarounnahr, 2006. – 256 b.
6. Jaloliddin Rumi. Masnaviy ma'naviy (o'zbekcha tarjima). - Toshkent: Sharq, 2010. – 640 b.
7. Aziziddin Nasafiy. Maqsad ul-aqso. Tehran: Intishoroti Mavlo, 2005. – 312 b.
8. William C. Chittick. Sufism: A Beginner's Guide. Oxford: Oneworld Publications, 2000. – 192 p.
9. Annemarie Schimmel. Mystical Dimensions of Islam. - Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975. – 514 p.
10. Henry Corbin. History of Islamic Philosophy. - London: Kegan Paul International, 1993. – 454 p.
11. Toshihiko Izutsu. Sufism and Taoism: A Comparative Study of Key Philosophical Concepts. - Berkeley: University of California Press, 1983. – 496 p.
12. Jaloliddin Rumi. Masnaviy ma'naviy. – Toshkent: Sharq, 2010. – 640 b.
13. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 223 b.
14. Ibn Sino Abu Ali. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1973. – 320 b.
15. Ibn Rushd. Tahāfut al-Tahāfut (The Incoherence of the Incoherence). - London, Buyuk Britaniya: Luzac & Co., 1954. – 863 p. (1-jild, 45–215-betlar.)
16. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Fan, 1971. – 964 b.
17. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – 208 b.
18. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 176 b.
19. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. – 312 b.
20. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010. – 320 b.
21. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-Tavhid. – Bayrut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 2001. – 576 b.